



**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQ VA TAFAKKURINI
O'STIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING UYG'UNLIGI**

**Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalish 1-bosqich
Talabasi Vaxobova Sharofatxon Primberdiyevna**

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15227183>

Anatatsiya: Ushbu maqolada bolalar nutqini o'stirish va rivojlantirishni pedagogik-psixologik muammolarining nazariy asoslari yoritildi. Bolalar nutqini o'stirish va rivojlantirishning imkoniyatlari keng ko'lamda o'rganildi, omillar aniqlandi, zamonaviy pedagogik texnologiya asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish va rivojlantirishni pedagogik-psixologik yondoshuvni qaror topishiga erishildi.

Kalit so'zlar: Nutq, bolalar, ta'lim, tarbiya, qobiliyat, shaxsni rivojlantirish, shakllantirish, nutqini o'stirish, rivojlantirish, nutqni tushunishni takomillashtirish, nutqning faolligi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarorini ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

2017 yilning 16 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev rahbarligida bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish hamda mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoit yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlash ota-onalarga yordam beradi.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli vosita va metodlarini yangilashga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarorida; maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim –tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Bu qaror maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish xizmat qiladi.

Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro'y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan biz ushbu maqolamizda, amaliy va nazariy tahlillarga asoslangan holda, bugungi dolzarb muammolardan biri "Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutkini o'stirishda ommaviy axborot vositalari ko'rsatuvlaridan foydalanish" nomli mavzusini yoritishga harakat qildik.



Yangi avlod XXI asrga kirib keldi, vaqt esa kutmaydi. Yoshlarimiz ilm-fan, madaniyat, san'at va texnika yuksak darajada rivojlangan bir sharoitda yashamoqda. Sharq mutafakkirlarining g'oyalari tarbiyaviy masalalarda xalq donishmandligi bilan uyg'unlashib ketganligini hisobga olgan holda, ota-onalarning bolalar tarbiyasiga munosabatida oiladagi o'zaro munosabat, qariyalar va bolalarga beminnat g'amxo'rlik, bolalarni kichik yoshdan mehnatga o'rgatish bo'yicha o'y-fikrlari aks ettirilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oilada bolaning nutqi shakllanishi va rivojlanishi barobarida ular ongiga kattalarga hurmat, do'stlik, halollik, insoniylik tushunchalari singdirib boriladi. E'tibor qilsangiz, huddi shu vaqtda ular atrofdagilarni turli xil savollarga ko'mib tashlashadi va olgan javoblari qanday bo'lishidan qat'iy nazar ularning kelgusi hayotida dasturilamal bo'lib qoladi. Huddi shuningdek oiladagi har kungi yumushlari davomida bolalarning xulq-atvori shakllanib boradi va keyinchalik axloqning murakkab shakllari: jamoatchilik, vatanparvarlik, baynalmilal kabi jarayonlari davom etadi. Oila o'zining barcha hayot tarzi, hatto mayda-chuyda ko'z ilg'amas tomonlari bilan ham bola shaxsini kamol toptiradi.

Bola tarbiyasi jarayoni muammal bo'lishi uchun ota-onalar avvalo o'zlari bir-biriga mehri bo'lishlari muhim. Ota-onaning bolaga bo'lgan mehr-muxabbati-bu hissiyotdir. Oila sharoitida bolada ota-onasining mehri, erkalashlari asosida ota-onalarga, qarindosh-urug'lariga bo'lgan hissiyotlar-shakllanib boradi. Bolaning otasiga bo'lgan hurmati, onaning hurmatini joyiga qo'yishda asos bo'ladi. Onaga bo'lgan mehr-muhabbat, oqibat-natijada o'z oilasiga, xotini, farzandlariga bo'lgan munosabatlarida o'z aksini topadi. Bolani yoshligidanoq bilim olishga qiziqtirish, ularni kitoblar olamiga olib kirish, ularni yoshiga mos rasm, badiiy kitoblar tavsiya qilish, kitob o'qish madaniyatini o'rgatib borish, ular uchun oilada adabiy muhitni yaratish hamda juda muhim ishlar hisoblanadi. Kitoblarni tanlashda ularning ko'p jildligiga qarab emas, balki saviyasiga qarab tanlash joizdir. Bolaning intellektual salohiyatini oshirib borishda oilada ota-ona muhim o'rin tutadi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, bolaga tarbiyaviy ta'sir etuvchi omillar hozirgi davrda g'oyat darajada ko'paydi (oila, keng jamoatchilik, radio, televidenie kino, teatr, kitob, jurnal, musiqa va boshqalar. Radio, televideniya, kino ommaviy axborot vositalarining turmushdan keng o'rin olishi natijasida badiiy axborot hajmining ham keskin ortib borishi estetik tarbiya ahamiyatining tez suratlarda o'sishini ta'minlaydi. Estetik tarbiya umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror topishga xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalari orqali bolalarlar, talabalar juda ko'p ma'lumotlarni egallashayotgani, ma'lum tushunchalarga ega bo'layotganini nazarda tutish zarur. Lekin bu yo'llar bilan olingan to'liq bo'lmagan bilimlar, ularning fikricha, haqiqiy bilim bo'lib tuyuladi. Shuning uchun tarbiyachi ma'ruza vaqtida bolalar, talabalar ko'rgan, eshitgan hodisa, voqea to'g'risidagi ma'lumotlar mohiyatini anglab yetishga, axborot vositalari orqali olingan bilimlarni tahlil etish, baho bera olishga o'rgatishi muhimdir.

Olimlar zamonaviy multfilmlarning bola ongiga ta'sirini turli omillarda ko'rsatishga urinishgan. Shulardan birinchisi rangi. Ya'ni zamonaviy multseriallar va multfilmlarning deyarli barchasi yorqin bo'yoqlarda ishlangan. Bo'yoqlar shunchalar rang-barangki, har doim ham bir-biriga muvofiq kelavermaydi. Bu esa bola agressivligi ortishiga olib kelarkan.

Hozirgi multfilmlar kutilmagan tovush va shovqinlarga shunchalar boy-ki, bu bolaning cho'chishiga, bora-bora ularda qo'rquv paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy multfilmlarning aksariyatida syujetlarda chalkashliklar shunchalar ko'p-ki, katta odam ham ba'zan aks ettirilayotgan voqealarni tushunmay angrayib qoladi. Bolada esa bunday holatlar jahl chiqishi, asabiylashishga sabab bo'ladi.

salbiy qahramonlarning jazosiz qolib ketishi, nimani hohlasa shuni qilishi bilan bog'liq. Bola ruhiyatida ham ko'ngil tusagan ishni qilish mumkin ekan, bu uchun hech qanday jazo yo'q, degan tushuncha paydo bo'ladi.

Multqahramonlarning turli tryuklari. Ya'ni sakrash, parvoz qilish, mushtlashish va hokazo. Bolada ham bu harakatlarni bajarib ko'rish istagi paydo bo'ladi. Axir, qahramonlar tegirmondan



butun chiqyapti-ku. Demak bola xavfli tryuklarni bajarib, hech qanday jarohat olmayman, degan fikrga boradi. Bolaga hayotda boshqacha bo'lishini tushuntirishga to'g'ri keladi.

Insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g'oya va ta'limotlar bilan yovuz va zararli g'oyalar o'rtasida azaldan kurash bo'lib kelgan. Chetdan kirib kelayotgan har xil g'oyalar ta'siriga tushmasdan, o'z kuch-qudratimizga, salohiyatimizga, milliy qadriyatlarimizga, imon-irodamizga tayanib ish ko'rishimiz lozim. Oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erishish uchun uni avvalo oiladan boshlashimiz lozim. Bu esa ota-onalar zimmasiga kata mas'uliyatni yuklayi. Qolaversa, bu ishga keng jamoatchilik, mahalla va ommaviy axborot vositalarini ham jalb qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, hech kim chetda qolmasligi kerak bo'ladi.

Bugun globallashuv, hayot sur'atlarining beqiyos tezlashuvi sharoitida bu kurashda ogoh bo'lgan, farzandlarining ertasini o'ylagan millat yutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son Farmoni”
2. Aslanov I.N. Ijtimoiy faoliyat va muomala psixologiyasi. Metodik qo'llanma. –T.: 2019.
3. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. –T.: Turon-Iqbol, 2006.
4. Nazarov Q. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. –T.: Ijod dunyosi, 2002.